

UDK:159.9:316.6

QAROR QABUL QILISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI**Sotvoldiyeva Nargiza Abdukarimjon qizi***Farg'ona davlat universiteti 1-kurs magistranti**nargizasotvoldiyeva01@gmail.com*

Annotatsiya. Psixologik yondoshuvlarga muvofiq, qaror qabul qilish bir tomondan kognitiv, tartibga soluvchi, kommunikativ xarakterga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, shaxsning bior sohadagi keyingi harakatlari uchun asos bo'luvchi ijtimoiy-psixologik hodisa sanaladi.

Kalit so'z va iboralar: qaror, qaror qabul qilish, kognitiv, komunikatsiya, kasbiy faoliyat.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ

Аннотация. Согласно психологическим подходам, принятие решений, с одной стороны, носит когнитивный, регулирующий и коммуникативный характер, а с другой стороны, рассматривается как социально-психологическое явление, служащее основой для дальнейших действий личности в определенной сфере.

Ключевые слова и выражения: решение, принятие решений, когнитивный, коммуникация, профессиональная деятельность.

PSYCHOLOGICAL FACTORS IN DECISION-MAKING

Abstract. According to psychological approaches, decision-making has a cognitive, regulatory, communicative character on the one hand, and on the other hand, it is considered a socio-psychological phenomenon that forms the basis for the subsequent actions of a person in a given field.

Keywords and phrases: decision, decision-making, cognitive, communication, professional activity.

Qaror qabul qilish — bu shaxsning muayyan vaziyatda turli imkoniyatlarni ko'rib chiqib, ular orasidan eng maqbulini tanlash jarayonidir. Psixologik nuqtai nazardan qaror qabul qilish — bu ongli ravishda amalga oshiriladigan kognitiv jarayon bo'lib, unda bilimlar, hissiyotlar, ehtiyojlar va qadriyatlar muhim rol o'ynaydi. Quyida qaror qabul qilishning nazariy-psixologik asoslarini asosiy jihatlari bilan ko'rib chiqamiz:

QAROR QABUL QILISHNING PSIXOLOGIK MOHIYATI

- maqsadga yo'naltirilgan fikrlash faoliyati;
- alternativ variantlar tahlili;
- ehtimolliklarni baholash;

- motivatsiya va ehtiyojlarga asoslangan tanlov qilish.
Qaror qabul qilish quyidagi bosqichlarda amalga oshadi:
- **Muammoni anglash** – qarorni talab qiladigan vaziyatni tushunish.
- **Ma'lumot yig'ish** – imkoniyatlar va variantlar haqida axborot to'plash.
- **Variantni tanlash** – eng maqbul qarorni qabul qilish.
- **Natijani baholash** – qarorning oqibatlarini tahlil qilish.

QAROR QABUL QILISHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

1. **Shaxsning psixologik xususiyatlari** (o'ziga ishonch, xavotir, ehtiyotkorlik);
2. **Emotsional holat** (stress, qo'rquv, xursandchilik);
3. **Ijtimoiy bosim va konformizm;**
4. **Tajriba va bilim darajasi;**
5. **Motivatsion omillar** (ehtiyotlar, qadriyatlar).

Mohiyatan, qarorlar kasbiy faoliyatning barcha sohalariga, funksiyalariga aloqador sanalib, uning sifatiga sezilarli ta'sir etuvchi muhim omillar masalasida ko'plab zamonaviy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Qarorlar asosan, faoliyat sikli davomida qabul qilinib, u shaxsga tegishli fikrlash uslubi va zaruriy vaziyatlarga nisbatan munosabat bildirish holatidanamoyon bo'ladi. Psixologik yondoshuvlarga muvofiq, qaror qabul qilish bir tomondan kognitiv, tartibga soluvchi, kommunikativ xarakterga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, shaxsning bior sohadagi keyingi harakatlari uchun asos bo'luvchi ijtimoiy-psixologik hodisa sanaladi. P.V.Terelyanskiyning aytishicha, qaror qabul qilish hodisasi - bu turli sharoitlarda qarorlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishning uzluksiz tizimidir. Ya'ni, biror dolzarb muammoni hal qilish bo'yicha, ko'plab harakatlar yo'nalishlaridan birini tanlash jarayoni hisoblanadi¹. Boshqaruv qarorlarining muhim ijtimoiy-psixologik xususiyati shundaki, ular favqulodda holat yuzaga kelganda, tizimning haqiqiy holati va kutilayotgan yangi holat o'rtasidagi farqlarni baholashga keng imkon beradi.

V.V.Redkoga ko'ra, inson tomonidan qabul qilingan turli qarorlar quyidagi funksiyalarni bajaradi²:

- Yo'naltiruvchi ya'ni, tashkiliy qarorlar faoliyatning maqsad va vazifalarini belgilaydi;
- Tashkil etuvchi va muvofiqlashtiruvchi, qarorlar ishtirokchilarning o'zaro munosabatlari tartibini belgilaydi;
- Ta'minlovchi, ya'ni qarorlarda ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarning turlari va miqdori ko'rsatiladi.
- Rag'batlantiruvchi, ya'ni qarorlar ishtirokchilarni qanday

¹ Терелянский П. В. Теория и методы принятия решений : учеб. пособие / П. В. Терелянский; ВолгГТУ. — Волгоград, 2016. – С.34.

mukofotlashni belgilovchi hodisa.

Iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida biror shaxsni voqealar rivojining biror yechimi qoniqtirmasa ham, u tezkor qaror qabul qilishi lozim. Qabul qilingan qarorlarda uning kasbiy mahorati, intellektual sifatlari, intuitsiyasi darajasi, hayotiy tajribalari, qadriyatlari tizimi hamda irodaviy harakatlari ko'rinishi kabilar yaqqol namoyon bo'ladi. Ijtimoiy – psixologik yondoshuvlarga ko'ra, uzoq muddatli qarorlarini tez va oqilona qabul qilish nafaqat bilim va ko'nikmalarga balki, shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga ham bog'liq sanaladi. V.V.Kochetkovning ilmiy izlanishlarida, muvaffaqiyatli shaxs sifatlarini tushuntiruvchi qator yondoshuvlar mavjud bo'lib, ushbu yondoshuvlarni tahlil etish, sohaga oid qarorlarni samarali qabul qilishning ijtimoiy – psixologik shart-sharoitlarini tushuntirishga keng imkon beradi va unda quyidagi yondoshuvlar ajratiladi².

Qaror qabul qilish jarayoni ijtimoiy - psixologik hodisa sifatida qaralsada, ba'zi manbalarda uning umumpsixologik jarayon sifatidagi jihatlari ham keng e'tirof etilmoqda. N.G.Miloradovanning aytishicha, boshqaruv qarorlarini qabul qiluvchi rahbarning tafakkuri quyidagi sifatlarga ega bo'lishi lozim. Ya'ni fikrlashdagi chuqurlik, ma'lumotlarni tahlil etishdagi kenglik, muammolarni hal etishdagi tezkorlik va har qanday vaziyatlarga moslashuvchanlik va hokazo. Keng fikrlash tafakkurning sintetik xususiyatini hisoblanib, unda inson faoliyatning umumiy sxemasi va rollarni baholay olish imkoniyati kabilar aks etadi. Tafakkur qilishdagi tezlik bu - amalga oshirilayotgan vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan vaqt me'yori bilan tavsiflanadi. S.I.Samigin tomonidan yaratilgan "Boshqaruv psixologiyasi" monografiyasida qayd etilishicha, boshqaruv faoliyatida aniq va strategik qarorlar qabul qilish uchun avvalambor, rahbar optimist bo'lishi kerak. Optimist rahbar barcha tashkilotlar uchun foydali shaxsdir. Ular har qanday og'ir sharoitlarda va umidsiz vaziyatlarda ijobiy qarorlar qabul qilish qobiliyatiga egadir. Shu bilan birga, mazkur xususiyatga ega rahbarlar doim o'z faoliyatiga fidoiy, yangi loyihalarni yaratishga moyil tipdagi rahbar shaxslar hisoblanishadi²⁵. Mazkur yondoshuvda shu narsa nazarda tutilganki, boshqaruv qarorlari va ularni amalga oshirishning ijtimoiy-psixologik omillari tahlilida, rahbar shaxsiga xos tiplar muammosi ham e'tibordan chetda qolmasligi ta'kidlanadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hozirga qadar rahbar faoliyati va uning muvaffaqiyatini ta'minlovchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarning modeli masalasida, xorijda ko'plab e'tiborga molik tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. **Gerbert A. Simon.** "Administrative Behavior: A Study of Decision-Making Processes in Administrative Organizations." New York: Free Press, 1997.

² Кочетков В.В. Индивидуально-психологические проблемы принятия решения / В. В. Кочетков, И. Г. Скотникова. – М. : Прогресс, 2008. – С.95.

2. **Daniel Kahneman.**"Thinking, Fast and Slow."New York: Farrar, Straus and Giroux, 2011.
3. **Gigerenzer, Gerd.** "Gut Feelings: The Intelligence of the Unconscious." New York: Viking, 2007.
4. **Janis, Irving L. & Leon Mann.** "Decision Making: A Psychological Analysis of Conflict, Choice, and Commitment." New York: Free Press, 1977.
5. **Robbins, Stephen P., & Judge, Timothy A.**"Organizational Behavior."18th Edition, Pearson Education, 2018.